

“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim
pedagogikasi kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent.**

kabrorxonovna@mail.ru Tel: +998974451446

Rajabova Sarvinoz Shovkatjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPUning Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 2-bosqich talabasi.

sarvinozr1209@gmail.com Tel: +998903934099

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15331444>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi pedagogik va psixologik imkoniyatlari yoritilgan. Asardagi axloqiy nasihatlar, maqollar, hikmatli fikrlar orqali o‘quvchilarning fikrlash, o‘z fikrini bayon etish, odob-axloq va nutq madaniyatini shakllantirish yo‘llari tahlil qilingan. Ushbu maqola boshlang‘ich ta‘lim jarayonida nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy-ma‘naviy merosdan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, Turkiy Guliston, axloqiy tarbiya, og‘zaki nutq, yozma nutq, pedagogik imkoniyatlar, psixologik yondashuv, boshlang‘ich ta‘lim, nutqni rivojlantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya.

Bugungi tezkor taraqqiyot va zamonaviy axborot oqimi sharoitida yosh avlodning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish orqali ularning tafakkur doirasi, ma‘naviy qiyofasi va kommunikativ salohiyatini yuksaltirish davlatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu borada milliy qadriyatlar, tarixiy va madaniy merosni ta‘lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday degan edi: “O‘z tarixini, tilini, madaniyatini bilgan, milliy g‘urur va iftixorga ega bo‘lgan yoshlar – bizning eng katta boyligimiz va tayanchimizdir”[1]. Bu fikrlar asosida ta‘lim jarayoniga o‘zbek adabiyoti va ma‘rifatparvarlik merosini singdirish, ayniqsa, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridan foydalanish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham og‘zaki, ham yozma nutqni rivojlantirish bilan birga, ularni axloqiy jihatdan kamol toptirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini ta‘lim-tarbiya jarayoniga jalb etish — bu nafaqat adabiy manbadan foydalanish, balki yosh avlod qalbiga ezgulik, mehr-oqibat, hurmat, mehnatsevarlik va insonparvarlik g‘oyalarini singdirish yo‘lida muhim qadamlardan biridir. Asarda keltirilgan har bir hikmat, nasihat yoki badiiy misra bolaning ma‘naviy olamida chuqur iz qoldirishi, uni ijtimoiy va ruhiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda bu kabi asarlarning o‘rni katta. Chunki bolalar bu bosqichda til va tafakkur jihatdan faol shakllanish jarayonida bo‘lishadi. Agar biz ularga to‘g‘ri va ibratli matnlar asosida og‘zaki fikr bildirish, mustaqil yozma ifoda qilish, ijtimoiy voqealarga munosabat bildirishni o‘rgatsak, bu kelajakda ularning nutq madaniyati, mulohaza yuritish ko‘nikmalari va muloqotda faolligini oshiradi. Shuningdek, Avloniy asaridagi pedagogik-psixologik jihatlar — bolaning ruhiy dunyosiga mos keladigan iboralar, sodda tilda

berilgan axloqiy qadriyatlar, qisqa va mazmunli hikmatlar — bugungi darslarda metodik vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Masalan, “Odobli bo'lmagan odam — xazinasini yo'q boy kabidir” [2:25] degan ibora asosida darsda rolli o'yinlar tashkil etish, kichik munozaralar o'tkazish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini mustahkamlash, yozma topshiriqlar orqali esa ularning izchil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining pedagogik-psixologik ahamiyati yosh avlodni tarbiyalashda va ularning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda juda katta rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy o'z asarida axloqiy qadriyatlar, odob-axloq, shaxsiyatni shakllantirish va ijtimoiy javobgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Bu asar pedagogik nuqtai nazardan yoshlarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni yaxshi muomala, adolat, halollik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni egallashga undaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan, “Turkiy Guliston” asaridagi nasihatlar va hikmatlar o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Bu asar o'quvchilarga dunyoqarashini shakllantirishda yordam beradi, ularga jamiyatda to'g'ri xulq-atvorni va axloqiy qoidalarini o'rgatadi. Asardagi fikrlar, o'quvchilarga yaxshi muomala, boshqalarga nisbatan hurmat va odobni o'rgatish bilan birga, ularning o'z-o'zini tahlil qilish, fikrlarni mantiqiy ravishda bayon etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu nafaqat bilimni kengaytirish, balki shaxsiy dunyoqarashni shakllantirishga ham yordam beradi. Asarda ta'kidlashicha, “...zehnsiz kishilarning o'lchovsiz so'zlari o'zlarini uyaltirgani kabi eshituvchini ham zeriktirur...” [2:40] bu esa o'quvchilarga faqat kitob va bilimlar orqali fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashni, so'zning kuchini anglashni o'rgatadi. Zehnni quvvatlantirish va fikrni ochish jarayonida, o'quvchilarga mutolaaning ahamiyatini tushuntirish, ularni kitob o'qishga undash, ma'naviy yetuklikka erishishlariga yordam beradi. Bu pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarga nutqni rivojlantirish va ilmiy fikr yuritishning samarali usullarini taqdim etadi. Demak, Avloniyning bu fikrlari o'quvchilarni faqat nutqni rivojlantirish emas, balki ularning aqliy va ruhiy taraqqiyotini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Bu fikrlar pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos yaratadi. O'quvchilarni faqat axloqiy qadriyatlarni o'rgatish bilan cheklanmay, ularda ilmga chanqoqlik, bilimga bo'lgan muhabbatni ham rivojlantirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, ularning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Psixologik nuqtayi nazardan esa, “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari o'quvchilarning ichki dunyosini rivojlantirishga, ularning hissiy va ruhiy holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Yoshlar o'zlariga nisbatan xulq-atvorni tahlil qilishni o'rganadilar, axloqiy qadriyatlar va jamiyatga nisbatan javobgarlik hissinini rivojlantiradilar. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va o'zgarishlarga tayyorlikni kuchaytiradi. Asarda keltirilgan hikmatlar o'quvchilarni muomala madaniyatiga o'rgatadi va ularni boshqalarga nisbatan mehr-muhabbat va adolatli bo'lishga undaydi. Bu hissiyotlar o'quvchilarni ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi va ularning hayotidagi muhim qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Avloniyning: “Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o'ldig'indan vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur” [2:37], - degan fikri, psixologik ahamiyatga ega bo'lgan asosli nuqtadir. Bu fikrni pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, vijdon va axloqiy fazilatlarning o'zaro bog'liqligi, o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashda juda muhim rol o'ynaydi. Vijdon, shaxsning ichki axloqiy kompasidir, u har bir qaror va xatti-harakatni to'g'ri va adolatli qilishga undaydi. Avloniyning bu fikriga ko'ra, vijdonli shaxslar o'z ishlarini xolis va beg'araz niyat bilan amalga oshiradilar, bu esa ularni jamiyatda

maqbul va suyuqli qiladi. Psixologik jihatdan, vijdonning kuchli bo'lishi shaxsning o'zini o'zi baholashiga, o'z xatti-harakatlarini boshqarishga va boshqalar bilan munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zaro hurmat, mas'uliyat va boshqalarga bo'lgan e'tiborlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, bu fikrni boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasida ishlatish, ularga vijdonning ahamiyatini tushuntirish, ularni yaxshi xulq-atvorga undashda samarali bo'ladi. Vijdonli insonlar boshqa odamlarga nisbatan yaxshilik va hurmat bilan muomala qiladilar, bu esa jamoada ijobiy ruhiyatni mustahkamlaydi va ularga o'zaro hamjihatlikda yashashni o'rgatadi.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishdagi pedagogik va psixologik ahamiyatini ko'rib chiqishda, uning o'quvchilarga nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qanday ta'sir qilishini alohida ta'kidlash kerak. Avloniyning asari o'quvchilarga faqat axloqiy qadriyatlarni o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki ularning fikrlash va ifodalash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu asar og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda samarasiz bo'lmaydi, aksincha, undagi hikmatlar va nasihatlar o'quvchilarga aniq va izchil nutqni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar asardagi muhim fikrlarni tahlil qilish orqali nutqini aniqlik va ravonlik bilan ifodalashni o'rganadilar. Masalan, Avloniyning axloqiy g'oyalarini tahlil qilish orqali o'quvchilar o'zlarining fikrlarini oson va tushunarli tarzda ifodalashni o'rganadilar. Buning natijasida, o'quvchilarda og'zaki nutqdagi aniqlik, mantiqiy va tuzilgan fikrlarni bayon qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yozma nutqni rivojlantirishda “Turkiy Guliston” asaridagi: “Tilni o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur” [2:45], - fikri alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalashda aniq va sodda tilda, maqsadga muvofiq so'zlardan foydalanishlari kerak. Bunda, o'quvchilarga o'z fikrlarini oddiy va tushunarli qilib yozish orqali o'z yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, ular ushbu jumla asosida kichik hikoyalar yoki matnlar yozishda voqealarni tartib bilan ifodalashni o'rganadilar, so'zlarni to'g'ri joylashtirishga va ularni aniq ma'no bilan ishlatishga intiladilar. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z yozma matnlarida oddiy va tushunarli jumlar qurish orqali nafaqat tilni, balki mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradilar. Bu jarayonda, o'quvchilar yozgan har bir jumla yoki paragraflari o'rtasida izchillik bo'lishi kerak, chunki har bir fikr bir-biriga bog'lanib, o'quvchiga to'liq tasavvur berishi zarur. Nutqni rivojlantirish pedagogik va psixologik jihatdan o'quvchilarning emotsional, ijtimoiy va fikrlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Yozma va og'zaki nutqning samarali rivojlanishi o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi. “Turkiy Guliston” kabi axloqiy mazmundagi asarlar o'quvchilarga yaxshi muomala va vijdonli bo'lishni o'rgatib, ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu jarayon o'quvchilarni erkin, ishonchli va mustaqil shaxslar sifatida shakllantirib, psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Nutq rivojlanishi nafaqat ta'lim, balki shaxsiy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining pedagogik-psixologik ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda, ayniqsa, axloqiy va ma'naviy tarbiyani shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu asar o'quvchilarga nafaqat o'z fikrlarini ravon va aniq ifodalashni, balki yaxshilik, odob, vijdon va vatanga sadoqat kabi muhim qadriyatlarni tushunishga va ularga amal qilishga yordam beradi. Nutq rivojlanishi jarayonida undan foydalanish, o'quvchilarga nafaqat nutqiy ko'nikmalarni, balki umuman, axloqiy va

shaxsiy rivojlanishlarini ta'minlaydi. Shu tarzda, bu asar nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish, balki ularning ijtimoiy, psixologik va ma'naviy jihatlarini shakllantirishda ham bebaho manba hisoblanadi. Nutq rivojlanishi va axloqiy tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kelajak avlodni ma'naviy va ilmiy jihatdan mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarga axloqiy me'yorlarni o'rgatish uchun interaktiv metodlardan foydalanish, individual yondashuvni qo'llash va o'qituvchilarni malakasini oshirish muhimdir. Shuningdek, boshqa axloqiy adabiyotlar bilan integratsiya qilib, o'quvchilarga turli g'oyalarni taqdim etish ham samarali bo'ladi. Bu usullar o'quvchilarning nutqiy va axloqiy rivojlanishini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasini kuchaytirish uchun sinfda muntazam ravishda axloqiy bahs-munozaralar, rolli o'yinlar va guruhli ishlar tashkil etish zarur.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari. — T.: "O'zbekiston", 2021, 54-bet.
2. Avloniy, A. (2020). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Yoshlar matbuoti.
3. Nurullayeva, M. (2022). Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya".
4. Karimova, G. (2023). Tarbiya va ma'naviyat asoslari. Samarqand: Zarafshon.
5. Jo'rayev, I. (2021). O'zbek tili va adabiyoti darslarida tarbiyaviy g'oyalarni uyg'unlashtirish. "Ta'lim va taraqqiyot" jurnali, №4.
6. Rasulova, S. (2022). Bola psixologiyasi va ma'naviy tarbiya. Toshkent: Ilm Ziya.
7. Xudoyberganova, D. (2021). O'zbek adabiyoti ta'limida ma'naviy-tarbiyaviy yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.